



O'ZBEKISTONDA PUL-KREDIT TIZIMI VA UNI MODERNIZATSIYALASH YO'LLARI

Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Jizzax filiali "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida assistenti

Ikramova Dilnoza To'lqin qizi


Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Jizzax filiali Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimizning pul-kredit siyosati haqida qisqacha so'z yuritilgan bo'lib, pul-kredit siyosatini o'tkazish mexanizimi, mamlakatimizdagi hamda boshqa mamlakatlarning bankka omonat siyosati, yangi imtiyozlar, qarorlar, chora-tadbirlar hamda ularning yechimlari istiqbollarning tarkibiy mazmun mohiyati bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *pul-kredit siyosati, omonat (depozit), Islom banki, Shveysariya milliy banki, markaziy bank.*

Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasida islohatlarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chanbarchas bog'liq. Qayd etish lozimki, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yondoshuvlarning qayta ko'rib chiqilishi davrida shakllanayotgan yangi voqealarda pul-kredit sohasidagi o'zgarishlarning aholi va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan to'g'ri qabul qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xaqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rinib turgani barchaga malum. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.


Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bunda "Milliy valyuta barqarorligi" tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligi yoki uning ichki harid qobiliyati barqarorligi deb talqin qilish mumkin. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari, shuningdek inflatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha majburiyatlarning aniq belgilanishi jamiyatda ijobiy iqtisodiy kutilmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda aholining inflatsion kutilmalari ko'p jihatdan valyuta bozorida almashuv kursining dinamikasi bilan bog'liqligi inobatga






olgan holda, qisqa muddatli davrda milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pul-kredit siyosatini rivojlantirishning hozirgi bosqichda zamonaviy pul-kredit instrumentlarini joriy etish, amaldagilarni takomillashtirish va ularning ta'sir mexanizmini mustahkamlash, shuningdek ichki iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ravishda e'tibor qaratilyapti. Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va uning instrumentlari ro'lini kuchaytirish, bank tizimi likvidligini tahlil qilish va prognoz hamda pul bozorida operatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida 2018-2021 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasining maxsus texnik missiyalarini jalb qilish, xorijiy mamlakatlar markaziy banklari ilg'or tajribasini o'rganish va o'zaro tajriba almashish amaliyotini kengaytirish ko'zda tutildi[1]. Bank nazoratini xalqaro amaliyot va andozalarga muvofiq holda takomillashtirilishi, bank tizimida raqobat muhitining kuchayishi hamda tijorat banklarining kredit siyosatida bozor mexanizmlarini keng qo'llashni davom ettirilishi, o'z navbatida, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati rejimlarining o'ziga xos jihatlari va ta'sirchanligi tahlili o'rta muddatli istiqbolda Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida narxlar barqarorligiga erishish vazifasiga inflatsion targetlash rejimi juda mos kelishini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tamoyil va usullarining inflatsion targetlashga bosqichma-bosqich yo'naltirish uchun zarur huquqiy asoslar va tayanch iqtisodiy sharoitlar yaratildi[2]. O'zbekiston sharoitida mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyati 1994-yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilganidan so'ng paydo bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, so'nngi yillarda Respublikamizda pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minladi. Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, iqtisodiyotda narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inflatsiya darajasini 2023-yil yakuniga qadar 5% gacha pasaytirish maqsadlaridan kelib chiqilgan. Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida Markaziy bankning o'rta muddatli makroiqtisodiy rivojlanish prognozlari va kelgusi yillarda pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan ishlar, tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar o'zgargan holatlarda Markaziy bank tomonidan ko'riladigan choralar va pul-kredit siyosatini yuritishdagi yondashuvlar aks ettirilgan. Jahon iqtisodiyoti 2020-yilda koronavirus pandemiyasi va uning ta'sirida yuzaga kelgan global va uning ta'sirida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz sharoitida qat'iy karantin cheklovlarining kiritilishi sababli iqtisodiy faollikning pasayishi va ta'minot zanjiridagi uzilishlar hamda pul-kredit va soliq-byudjet siyosatlarining sezilarli darajada yumshatilishini boshdan o'tkazdi. 2021 yilda esa pandemiya bilan bog'liq vaziyatning nisbatan yaxshilanishi, karantin choralarining yumshatilishi, iqtisodiyot sub'yektlarining pandemiyaga moslashuv darajasining





ortishi hisobiga iqtisodiy faollikning sezilarli tiklanishi kuzatilib, yalpi talab hajmining pandemiyagacha bo'lgan darajasiga yetishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu yilgi hisob-kitoblarda iqlim o'zgarishlari va asosiy oziq-ovqat mahsulotlari taklifi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan islohotlar va ularning kutilayotgan natijalari shartli omillar sifatida inobatga olindi. Iqtisodiy faollik yuqori sur'atlarda jadallashib borib, investitsion va iste'mol talabi pandemiyagacha bo'lgan darajaga to'liq tiklanadi. 2022 yilda yalpi ichki mahsulot hajmi o'zining potensial darajasiga ko'tarilib, real iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5-6,5 foizni tashkil etadi va 2023-2024 yillarda 6 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. [4] Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasi 2022 yildan bosqichma-bosqich fiskal konsolidatsiya boshlanishini taqozo qiladi va fiskal taqchillikning YaIMga nisbati 2023-2024 yillarda 2,0-3,0 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda. Kelgusi yillarda operatsion mexanizmni yanada takomillashtirish va pul bozorini rivojlantirish bilan birgalikda, ichki valyuta bozorida islohotlarning navbatdagi bosqichini amalga oshirish, tahliliy-prognozlash salohiyatini rivojlantirish va pul-kredit siyosati transmisson mexanizmi samaradorligini oshirish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Markaziy bankning diqqat markazida bo'ladi. Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baxolarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat Markaziy bank umumiy pul-kredit siyosatini amalga oshirsa, uning buyurtmasi davlatda faoliyat yuritadigan barcha kredit va moliya muassasalariga murojaat qiladi. Pul siyosatining maqsadlari va usullari iqtisodiyotda asosiy tarmoqlarni rivojlantirishni rag'batlantirish, davlatning bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi - O'zbekiston Respublikasi moliya va pul-kredit tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Respublikamizda bank tizimi ikki pog'onali bank tizimidan iborat bo'lib, o'z ichiga Markaziy bank va tijorat banklarini oladi. Markaziy bankning tijorat banklari bilan hamda tijorat banklarining o'z mijozlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari, jumladan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunlarida belgilangan. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 20-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish belgilangan. Markaziy bank o'z oldiga qo'yilgan vazifaga erishish uchun banklar, mikrocredit tashkilotlari, lombardlar va kredit byurolari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni belgilaydi. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan milliy hamda chet el valyutasida turli muddat va shartlar asosida keng ko'lamda omonat (depozit) turlari





taklif etilmoqda. U yoki bu omonat turiga bo'sh pul mablag'larini joylashtirish orqali har bir omonatchi ushbu joylashtirilgan mablag'laridan maksimal darajada daromad olishi yuzasidan ma'lum risklarga duch keladi. O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlarni munosabati bilan Markaziy bankning Jahon banki guruhi bilan hamkorligi sezilarli darajada faollashdi.

Birlashgan Arab Amirliklari dunyoga ko'p narsalar bilan mashhur. BAA yetakchi moliyaviy institutlarga ega davlatdir. BAA markaziy banki moliyaviy qoidalar uchun javobgar bo'ladi. BAA da 26 ta xorijiy bank, 23 ta mahalliy bank 8 ta islom banki faoliyat yuritiladi. Dubay Islom Birlashgan Arab Amirliklaridagi eng yirik islom banki va dunyodagi ikkinchi yirik islom banklardan biri. Bank BAA ning Dubay shahrida joylashgan bo'lib, 1975 yilda tashkil etilgan. Dubay Islom banki dunyodagi birinchi to'liq faoliyat yurituvchi islom bankidir. Oddiy banklardan tashqari, BAA so'nggi yillarda juda katta o'sishga erishilgan islom banklarini ham taklif etadi. BAA Markaziy banki mamlakatdagi banklarni tartiga soluvchi organ hisoblanadi va uning asosiy mas'uliyati bank, kredit va pul-kredit siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdir. Hozirgi Islom bank ishi va moliyasi 1 trillion AQSH dollaridan (1000 milliard AQSH dollari) ortiq boshqariladigan aktivlarga ega, 400 dan ortiq muassasalarida o'z ichiga olgan dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. BAA foiz stavkalarini pasaytirish va aviakompaniyalar kabi yirik korxonalar uchun naqd pul olishni osonlashtirishga qaratilgan faol pul-kredit siyosatini qo'llaydi. BAA ning pul-kredit siyosati mamlakatni qamrab oladi. Pul-kredit siyosati iqtisodiyotdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, agar pul massasi o'zgarsa, foiz stavkasi o'zgarishligi aniqlangan investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish va bu tariqa mamlakatda pul-kredit siyosati amalga oshirilgandan beri iqtisodiy o'sishni ta'minlash BAA butunlay mustaqil emas. Shu sababli, pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri foizdan tashqari ahamiyatsiz. Birlashgan Arab Amirliklari Pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini saqlash va inflatsiya darajasini minimal darajada ushlab tushirish samarali amalga oshirilsa, mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim ro'l o'ynaydi. Bunday maqsadlarga mamlakatning pul-kredit hokimiyati tomonidan pul taklifi, pul mavjudligi va pul qiymati yoki foiz stavkasini nazorat qilish jarayoni orqali erishiladi. Pul-kredit siyosati iqtisodiyotdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib, BAA ning asosiy maqsadi mamlakat ichidagi jozibador iqtisodiy vaziyat darajasini barqarorlashtirish uchun o'z vositalari, ya'ni foiz stavkasi, inflatsiya va pul taklifi orqali iqtisodiy o'sishni rag'banlantirishdan iborat. BAA da so'ngi 10 yildagi pul-kredit siyosatining mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ro'lini alohida ahamiyat kaasb etib kelmoqda. Shunday qilib, ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchash uchun pul-kredit siyosatining yalpi ichki mahsulotga ta'sirining tavsifiy tahlili o'tkazildi. Pul-kredit siyosatining asosiy vazifasi turli xil siyosat vositalari yordamida iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun pul taklifni boshqarishdir. Vaholanki, BAA ning YaIM ga pul-kredit siyosatining ta'sirini tahlil qilishini kengaytirishdan oldin, butun dunyo bo'ylab markaziy banklar tomonidan qo'llaniladigan eng ko'p vositalarni chetda qoldirmaymiz.





BAA ning pul-kredit siyosati maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. BAA ning iqtisodchisi Mehra 2017- yilda pul-kredit siyosatini o'tkazish mexanizmini rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar nuqtai nazardan o'rgandi. Uning tadqiqotining asosiy maqsadi inflyatsiya darajasi, valyuta kursi va iqtisodiy o'sish kabi asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilar nuqtai nazaridan pul-kredit siyosatining samaradorligini baholashdan iborat.

Birlashgan Arab Amirliklarining so'nggi 10 yildagi pul-kredit siyosatining samaradorligini ko'rib chiqildi. Uning asosiy maqsadi pul-kredit siyosatining BAA yalpi ichki mahsulotiga ta'siri samaradorligini o'rganishdan iborat edi[5].

XX-asr boshlarida yuzaga kelgan global iqtisodiy muammolar, Shvetsariya banklari uchun ichki qonunlar tizimining yaratilishiga turtki bo'ldi. Natijada, "Banking Act of 1934" ga asos solindi. Unga ko'ra, banklarning hisob raqamlari yoki bank mijozlari haqidagi har qanday ma'lumotning oshkor qilinishi qonun tomonidan taqiqlanishi va aks holda banklarning javobgarlikka tortilishi ochiq-oydin bayon qilinadi. Lekin bunga qadar ham 1713-yili Jeneva Konsuli tomonidan shunga o'xshash qonun-qoidalar to'plami e'lon qilingan edi. Mijoz haqidagi ma'lumot bank tomonidan oshkor qilinsa, bank xizmatchisi 6 oygacha qamoq jazosiga va 50.000 shvetsar franki miqdorida jarimaga tortilishi mumkin edi.

Shvetsariya iqtisodiy tarafdin juda ham mustahkam va ishonchli davlatdir. Shuning o'zidan ham, bu davlatdagi banklarning qanchalik ishonchli ekanligini va davlat bo'yicha tartibsizliklarning kutilmasligini anglab yetishimiz mumkin. "Shveytsariya bankidagi kabi xavfsiz" bu shunchaki ibora emas. Gap shundaki, aynan Shveytsariyada bank tizimining barqarorligi qonun bilan juda qattiq himoyalangan. Islohotlardan so'ng, mamlakat o'zining yirik zaxiralari hajmiga bo'lgan talablar bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Shvetsariya franki hech ham jiddiy inflyatsiyaga uchramaganligi bilan boshqa davlat pul birliklari orasida alohida o'ringa ega. Banklarning sarmoya bo'yicha xizmatlari va internet bank tizimlari ham qulay va mukammal tarzda ishlab chiqilgan[11].

Shveytsariyadan tashqarida yashovchi jismoniy shaxslar (shu jumladan rossiyaliklar) bu yerda 300 000 AQSH dollardan 500 000 AQSH dollargacha omonat ochishlari mumkin. Shveytsariya banklari ko'plab kapital kafolatlarini taklif qiladilar. Masalan, naqd pul qimmat baho qog'ozlar seyflarda saqlanadigan qimmatbaho metallar esa bankrot bo'lgan taqdirda ham egalarining mulki bo'lib qoladi. Va ular birinchi iltimosiga binoan ularga qaytib kelishadi!

Ko'pchilik Shveytsariya bankida omonatga ega bo'lishni orzu qiladi, chunki bu harakatlar foydali va ko'p afzalliklarga ega. Birinchidan, ular investitsiya qilingan pulni yo'qotish xavfi deyarli yo'qligini o'z ichiga oladi. Shveytsariya banking har qanday mijozi bank siri hech qachon oshkor etilmasligiga 100% ishonch hosil qilishi mumkin va barcha operatsiyalar faqat maxfiy tarzda amalga oshiriladi. Shveytsariyaning eng





yirik banki UBS mamlakat fuqarolari uchun smartfonlar yordamida hisob ochish imkoniyatini e'lon qildi[8].

Shveysariya Milliy Banki SNB (Schweizerische National Bank) ma'lumotlariga ko'ra federal qonun hisoblanadi aksiyadorlik jamiyati bilan maxsus maqom. Uning devorlari ichida Konfederatsiya nazorati ostida milliy Shveysariya franki banknotalari chiqariladi. Tangalar zarbxona tomonidan chiqariladi. Boshqacha qilib aytganda, SNB kredit olib boradi - pul-kredit siyosati mamlakat manfaatlari uchun[3].

Shveysariya bankida nafaqat yuqori darajadagi maxfiylik yoki kafolatlangan ishonchlilik, balki ma'lumotnoma tufayli ham hisob ochishga arziydi. Chet el kompaniyasining Shveysariyadagi hisob raqami dunyodagi eng rivojlangan bank sektorlaridan biriga kirishdir[10]. Pulni Shveysariya bankiga qo'yish. Hamma zamonda (hatto birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida ham) Shveysariya jamg'armalaringizni saqlash uchun eng ishonchli joy hisoblangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki - Dubay Islom Banki (Jamoat Aksiyadorlik Jamiyati) dunyodagi birinchi to'liq islom banki bo'lib, an'anaviy islomiy qadryatlarning eng yaxshilarini zamonaviy moliya institutini tavsiflovchi texnologiya va innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirilgan kashshof muassasa sifatida o'ziga xos xususiyatga ega[12]. Shu jumladan bizning mamlakatda ham islom moliyasi banki tizimini joriy qilinsa Dubay islom banki (BAA), Al-Baraka (Bahrayn), Kuwait finance House singari bir qator islom banki, moliya muassasalari kirib kelishi va ular mahalliy biznes loyihalarini moliyalashtirish, bank tarmog'iga sarmoya kiritishiga deyarli shubha yo'q. Shuningdek, bunday xizmatlarni yangi yangi moliyaviy texnologilarni qo'llash orqali mamlakatimizni yanada rivojlanishiga katta imkoniyatlar va yutuqlar bo'lar edi. Bular misol tariqasida quyidagi loyihalar bo'lishi mumkin:

1) Yagona ma'lumotlar bazasini tashkil etish[6]. Bu degani biron bir biznes yurituvchi tashkilot haqida ma'lumot (daromadi, sof foydasi, ishlab chiqarish yoki xizmatlar hajmi, ishchi personallar soni)ni onlayn ko'rishni imkonini beradigan platforma, saytlar va mobil ilovalar yaratish[9];

2) Ushbu yuqoridagi tashkilotlarda analiz tahlil olib borgan investor tomonidan biznesga onlayn, qulay va ishonchli pul tikish hamda daromadni ma'lum bir kelishilgan qismini (ulushini) olishi va ushbu biznes haqida jonli kunlik monitoringini yoritib beruvchi dasturlar yaratish[13];

3) Kichik tashkilotlar birlashib, yirik tashkilotlarni tashkil etilishi hamda o'z aksiyalarini joriy etib, ushbu aksiyalar haqida ma'lumotlarni jahon ommaviy axborotlarida yoritish va reklama qilish[7];

Mamlakatimizda ham islom banklari ochilsa, siyosiy va iqtisodiy jihatdan barqaror davlatlar qatoriga kiradi. Bu esa xorijiy sarmoyadorlar uchun muhim bo'lgan masalalardan biri bo'lib qoladi. Mamlakatimizda islom banki ochilishining yana bir yutuqlaridan biri bu - mamlakatimizning aholisining 90%dan ortig'i musulmon va aholining bir qismi islom banki mahsulot va xizmatlariga qiziqish bildirganda ham banklar uchun juda ko'p ehtimoliy mijozlarni qamrab olishi mumkin. Bularning





barchasi islom moliyasi muassasalari O'zbekistonga sarmoya kiritish uchun ijobiy ishora hisoblanishi ehtimolligi katta va qulay imkoniyatlar yaratilishiga dalolat boladi. Islom moliyasi muassasalarining kirib kelishi esa real iqtisodiyotning rivojlanishi, aholining barcha qatlamlariga keng qamrovli imkoniyatlar yaratilishiga hissa qo'shish, qolaversa yuqori natijalarni berishda ko'zlangan maqsadlar chetda qolmaydi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
<https://cbu.uz/uz/services/citizens/>
2. Rashidov A. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING ORNI VA AHAMIYATI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
3. Xiao, K., Wang, Y., Whited, T. M., & Wu, Y. (2017). Market power and monetary policy transmission: Evidence from a structural estimation. Retrieved from https://sci-hub.tw/https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3049665
4. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish Konsepsiyasi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>
5. Snyder, T. C., & Bruce, D. (2002). Tax cuts and interest rate cuts: An empirical comparison of the effectiveness of fiscal and monetary policy. Journal of Business & Economics Research, 2(8), 1-12. Retrieved from <http://clutejournals.com/index.php/JBER/article/view/2906>
6. Abdulkarimov A., Rashidov A. Ma'lumotlar bazalarining–biznesni tashil etish va samaradorligini oshirishdagi roli //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 132-135.
7. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 20-22.
8. Nilufar Sabitjanovna Ismailova, Uchqun Ro'zimurod O'G'Li Rashidov, Abror Ro'zimurod O'G'Li Rashidov JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNIY ASOSLARI // Scientific progress. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jahon-savdo-tashkilotiga-qoshilish-qoshilish-jarayoni-hamda-uning-qonuniy-asoslari> (дата обращения: 14.09.2022).
9. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – С. 33-34.
10. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 589-592.





11. Rashidov U., Rashidov A., Naimov S. Modern Views on the Problems of Management Accounting in Logistics System // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 276-283.

12. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.

13. Abdukarimov D. A. et al. 7 FREE BEST OPEN SOURCE DATABASE MANAGEMENT SYSTEMS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 40-47.

14. Мухтаров Б. А. Оптимальное распределение объемов строительномонтажных работ //Молодой ученый. – 2018. – №. 22. – С. 427-431.

15. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.

16. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

17. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.

18. Насиров Б. ХХ АСРНИНГ 30-80 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКISTONДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН//ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. –2022. –Т. 5. –№. 1.

19. Nasirov B. Catering In Uzbekistan From The History Of The System //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. –2021. –Т. 3. –№. 02. –С. 11-15.

20. E'tiborxon Mallayeva S. M. МАФКУРА ВА МАФКУРАВИЙ КАТЕГОРИЯЛАР ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО МУНОСАБАТНИНГ НАЗАРИЙ ЖИ//АТЛАРИ, Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.

21. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. *Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar*, 1(1), 634–635. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390> Bibliografik manbalar

22. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. –2022.–Т. 1. –№. 1. –С. 32-36.

